

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomurov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'lg'in Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmurodovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 673 sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda
ruxsat etildi.





MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBEB

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH

Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlari hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169

SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH

Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari.....179

MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori marketing tadqiqotlarini o'tkazishda raqamlashtirish jarayonining afzalliklari.....184

ТАДЖИЕВА САЙЁРАХОН УРАЛОВНА

Маркетинговая привлекательность Бухарской области и факторы её формирования.....193

G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari.....208

USMONOVA MOHIGUL MANSUR QIZI

Yashil iqtisodiyot va ayollar tadbirkorligi rivojlanishining nazariy-konseptual asoslari.....214

ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari.....223

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH

Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari.....234

TADJIYEVA SAYYORAXON URALOVNA

Hudud marketing kapitalining nazariy asoslari va konseptual modeli.....240

SHAMSIKULOVA MOXINA BONU FURKATOVNA

Tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning xorij tajribasi.....254

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Oliy ta'limda iqtisodiy fanlarni o'qitish orqali talabalarning moliyaviy madaniyatini yuksaltirish.....261

SADIKOVA MUSLIMA ALISHER KIZI

Implementation of international standards in the corporate governance system of joint-stock companies of Uzbekistan.....270





XAMDAMOV SARDOR FARMON O'G'LI

Davlat xaridlarining moliyaviy mexanizmi: tushunchasi, tarkibiy elementlari va amal qilish tamoyillari.....276

SHAMSIDINOVA ZILOLAXON MAXMUDJON QIZI, MITILLAYEV IBROHIMJON

Diversifikatsiyalanayotgan bank resurslarida likvidlikni boshqarish.....281

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Ta'lim – moliyaviy savodxonlikni oshirishning asosiy vositasi sifatida: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....290

TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH

Buxoro viloyati bo'yicha ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish.....299

ТЛЕУМУРАТОВА БАХАДИРА ГЕНЖЕМУРАТОВИЧА

Развитие и повышение эффективности сферы услуг (на примере Республики Каракалпакстан).....314

ISOQOV HASAN ABDUXALIMOVICH

Mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....324

TOXIROV JAVLON RAXIMOVICH

Buxoro viloyati bo'yicha ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar dinamikasini iqtisodiy prognozlash.....335

G'ULOMOVA SHAXLO BAXTIYOR QIZI

Improving strategic and operational management of construction projects in uzbekistan: a conceptual adaptation of a hybrid model.....348

IMOMJON KHAMIDOV

Public perceptions of environmental risks and willingness to pay for environmental protection: evidence from Uzbekistan and Central Asia.....355

ШУКУРОВА ШАХЗОДА ДЖАЛОЛОВНА

Влияние инфляционных процессов на развитие внешней торговли Республики Узбекистан.....365

ABDILXATOV ULUG'BEK ABDULQUDDUS O'G'LI

O'zbekiston bank tizimida islom investitsiya mahsulotlarini joriy etishning korxonalar faoliyati samaradorligiga ta'siri.....375

ESHTEMIROVA MA'RIFAT AKRAM QIZI

Digital transformation of the banking sector and financial inclusion in Uzbekistan.....383

JUMAQULOV TEMUR

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida mahsulot tannarxini kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari.....391

RAXMATOVA JO'RAXONPOSHSHO QAXRAMON QIZI

Ekoturizm subyektlarining innovatsion faoliyati: nazariy asoslari va boshqaruv mexanizmi.....397

TASHPULATOVA MUNIRAXON MAHMUDOVNA

Korxonalarda risk boshqaruvi orqali xodimlar salohiyatidan samarali foydalanishni baholash usullari va modellari.....405





MINTAQADA OZIQ-OVQAT SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

ISOQOV HASAN ABDUXALIMOVICH

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: lazizx64@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, qadoqlash va saqlash, tashish, bozor va chakana savdo jarayonlarining o'zaro bog'liqligi hamda ularni samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, oziq-ovqat sanoatining ichki va tashqi talab, import va eksport jarayonlari hamda iste'molchilar bilan iqtisodiy aloqalari tizimli jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion rivojlanishini jadallashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. oziq-ovqat sanoati, innovatsion rivojlanish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, infratuzilma, ishlab chiqarish, qayta ishlash, ichki talab, tashqi talab, import, eksport, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В данной статье исследованы организационно-экономические механизмы инновационного развития пищевой промышленности региона. Рассмотрены взаимосвязи процессов производства, переработки, упаковки и хранения, транспортировки, рыночной и розничной торговли пищевой продукцией, а также вопросы их эффективной организации. Кроме того, системно проанализированы внутренний и внешний спрос на продукцию пищевой промышленности, процессы импорта и экспорта, а также экономические взаимоотношения с потребителями. На основе результатов исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации по повышению конкурентоспособности пищевой промышленности и ускорению её инновационного развития.

Ключевые слова: пищевая промышленность, инновационное развитие, организационно-экономический механизм, инфраструктура, производство, переработка, внутренний спрос, внешний спрос, импорт, экспорт, конкурентоспособность.

Annotation. This article examines the organizational and economic mechanisms for the innovative development of the food industry in the region. The interrelationships between food production, processing, packaging and storage, transportation, market and retail trade processes, as well as issues related to their effective organization, are considered. In addition, domestic and external demand for food products, import and export processes, and economic relations with consumers are systematically analyzed. Based on the research results, scientific and practical proposals and recommendations have been developed to enhance the competitiveness of the food industry and accelerate its innovative development.

Keywords: food industry, innovative development, organizational and economic mechanism, infrastructure, production, processing, domestic demand, external demand, import, export, competitiveness.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat sanoatini barqaror va innovatsion rivojlantirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortib borishi, iste'mol tarkibining o'zgarishi, oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligiga qo'yilayotgan talablarning kuchayishi, shuningdek, global bozorlardagi raqobatning jadallashuvi mazkur sohada zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlardan keng foydalanishni





taqozo etmoqda. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan boshlab, ularni qayta ishlash, saqlash, qadoqlash, tashish va yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonlarning uzviyligini ta'minlash soha samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Oziq-ovqat sanoati mintaqa iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, hududlarning mavjud xomashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlash darajasini oshirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, qadoqlash va saqlash, tashish, ulgurji va chakana savdo hamda iste'mol jarayonlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning samarali tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlarda yuzaga keladigan uzilishlar ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi, mahsulot yo'qotishlari, tannarxning oshishi va ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli oziq-ovqat sanoatining innovatsion rivojlanishini ta'minlashda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini o'zaro muvofiqlashtirish, ichki va tashqi talabni hisobga olish, import va eksport oqimlarini samarali boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyati sharoitida ham oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish uchun mavjud xomashyo, ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni kengaytirish hamda zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish muhim hisoblanadi. Hududda oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshligini oshirish ishlab chiqaruvchilar, qayta ishlash korxonalari, logistika va savdo tashkilotlari hamda iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish bilan bevosita bog'liq.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishga ta'sir etuvchi tashkiliy va iqtisodiy jarayonlarni o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligini tizimli jihatdan yoritish hamda sohani innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion faoliyat, ishlab chiqarish samaradorligi, raqobatbardoshlik, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish nuqtayi nazaridan keng tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy qarashlarning shakllanishida innovatsiyaning iqtisodiy mazmuni va uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.





Innovatsion rivojlanish nazariyasining fundamental asoslari J.A. Schumpeter tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Olim iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida innovatsiyalarni ko'rsatib, yangi mahsulot ishlab chiqarish, yangi ishlab chiqarish usullarini qo'llash, yangi bozorlarni o'zlashtirish, yangi xomashyo manbalaridan foydalanish va ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllarini joriy etishni innovatsion rivojlanishning muhim ko'rinishlari sifatida asoslagan [11]. Ushbu nazariy yondashuv oziq-ovqat sanoatining innovatsion rivojlanishini faqat texnologik yangilanish sifatida emas, balki ishlab chiqarish va boshqaruv munosabatlarining kompleks o'zgarishi sifatida tadqiq etish imkonini beradi.

Oziq-ovqat sanoatida innovatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari K.G. Grunert, H. Harmsen, M.T.G. Meulenberg va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Mualliflar oziq-ovqat sektoridagi innovatsiyalarni tahlil qilishda bozor talabi, iste'molchilarning ehtiyojlari, texnologik imkoniyatlar va korxonalarining tashkiliy salohiyatini o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydilar [3]. Bu esa oziq-ovqat sanoatining innovatsion rivojlanishini ta'minlashda ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan bir qatorda iste'molchilar va bozor infratuzilmasining rolini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

B. Traill va K.G. Grunert tomonidan oziq-ovqat sanoatida mahsulot va jarayon innovatsiyalarining shakllanishi hamda ularning korxonalar faoliyatiga ta'siri tadqiq etilgan. Ularning yondashuviga ko'ra, oziq-ovqat sanoatida innovatsion rivojlanish yangi mahsulot yaratish bilangina cheklanmasdan, mahsulotni qayta ishlash, saqlash, qadoqlash, sotish va iste'molchiga yetkazib berish jarayonlaridagi yangiliklarni ham qamrab oladi [4]. Mazkur qarash oziq-ovqat sanoatining barcha bo'g'inlarini yagona innovatsion tizim sifatida o'rganish zarurligini asoslaydi.

S. Nosratabadi, A. Mosavi va Z. Lakner tadqiqotlarida oziq-ovqat ta'minot zanjiri va biznes model innovatsiyalari o'rtasidagi bog'liqlik masalalariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchilar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchiga yetkazish jarayonida ta'minot zanjirining samarali tashkil etilishi, yangi biznes modellaridan foydalanish hamda ishtirokchilar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish muhimligini ko'rsatadilar [5]. Ushbu yondashuv mintaqada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish va sotish jarayonlarini o'zaro muvofiqlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirish masalasi mamlakatning umumiy innovatsion salohiyati bilan ham chambarchas bog'liq. WIPO tomonidan ishlab chiqiladigan Global innovatsion indeks mamlakatlarning innovatsion resurslari va natijalarini qiyosiy baholash imkonini beradi [7]. O'zbekiston bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar ham mamlakatda innovatsion ekotizimni rivojlantirish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish va korxonalar innovatsion faolligini kuchaytirish masalalarining dolzarbligini ko'rsatadi [8]. Bu jarayonlar oziq-ovqat sanoati korxonalarining texnologik modernizatsiyasi va





innovatsion salohiyatini oshirish uchun ham tegishli institutsional sharoitlarni shakllantirishni talab etadi.

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat sanoatini innovatsion asosda rivojlantirish masalalari O.S. Ismailov tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Muallif oziq-ovqat sanoatining rivojlanishida innovatsion yondashuvlarning ahamiyatiga e'tibor qaratib, sohaning ishlab chiqarish va texnologik salohiyatini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish zarurligini asoslaydi [1]. N.A. Abdukadirova va B.S. Ubaydullayev tadqiqotlarida esa O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatining rivojlanish holati va uning iqtisodiyotdagi o'rni yoritilgan [2]. Ushbu tadqiqotlar milliy oziq-ovqat sanoatining rivojlanish xususiyatlarini aniqlash va hududlar kesimida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

P. Kotler va K.L. Keller tomonidan ishlab chiqilgan marketing yondashuvlarida esa korxonalar faoliyatini iste'molchi ehtiyojlari va bozor talablariga moslashtirishning ahamiyati asoslangan [9]. Oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi va assortimentini shakllantirishda ichki va tashqi talab, iste'molchilarning xohish-istaklari, mahsulot sifati, narxi va sotish kanallarini hisobga olish innovatsion rivojlanishning bozor mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoatining innovatsion rivojlanishi ishlab chiqarish – qayta ishlash – saqlash va qadoqlash – logistika – savdo – iste'mol bosqichlarini o'zaro bog'liq holda rivojlantirishni talab etadi. Mavjud tadqiqotlarda innovatsiyalar, ta'minot zanjiri, raqobatbardoshlik, marketing va texnologik modernizatsiyaning alohida jihatlarini yetarlicha tadqiq etilgan bo'lsa-da, ularni mintaqada darajasida yagona tashkiliy-iqtisodiy mexanizm doirasida o'zaro muvofiqlashtirish masalasi qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi [3; 5; 6; 10]. Shu sababli mintaqaning resurs salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ichki va tashqi talab, import-eksport aloqalari hamda iste'molchilar manfaatlarini o'zaro uyg'unlashtiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish mazkur tadqiqotning muhim yo'nalishi sifatida belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o'rganishda tizimli va kompleks yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini oziq-ovqat sanoatini alohida ishlab chiqarish sohasi sifatida emas, balki xomashyo yetishtirishdan boshlab mahsulotni qayta ishlash, qadoqlash, saqlash, tashish, sotish va yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan o'zaro bog'liq jarayonlarni qamrab oluvchi yaxlit iqtisodiy tizim sifatida baholash tashkil etadi.


Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, umumlashtirish hamda grafik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida oziq-ovqat sanoatining ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi, ichki va tashqi talab, import va eksport jarayonlari hamda



ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Bunda oziq-ovqat sanoatining innovatsion rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy, ishlab chiqarish, infratuzilmaviy va bozor omillarining o'zaro ta'sir mexanizmlariga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, metodologik yondashuvda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ichki va tashqi talab tizimning muhim bozor omillari, import va eksport oqimlari esa mintaqa oziq-ovqat sanoatining tashqi iqtisodiy aloqalarini ifodalovchi asosiy elementlar sifatida qaraldi. Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi ikki tomonlama iqtisodiy aloqalar esa bozor talabining ishlab chiqarishga qayta ta'sirini ta'minlovchi mexanizm sifatida baholandi.

Yuqoridagi metodologik yondashuvlar asosida mintaqa oziq-ovqat sanoatining asosiy subyektlari, infratuzilma elementlari, bozor talabi va tashqi iqtisodiy aloqalarining o'zaro ta'sirini ifodalovchi oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi shakllantirildi (1-rasm).



1-rasm. Mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

1-rasmda mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tizimli yondashuv asosida ifodalangan. Mazkur mexanizmning markaziy elementi sifatida viloyat oziq-ovqat sanoati olingan bo'lib, uning faoliyati ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, infratuzilma, ichki va xalqaro talab hamda import-eksport jarayonlari bilan o'zaro bog'langan. Ushbu elementlarning bir tizim doirasida faoliyat yuritishi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan



jarayonlarning uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Rasmning chap tomonida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar joylashtirilgan. Ishlab chiqaruvchilar tizimning boshlang'ich bo'g'ini bo'lib, ularning faoliyati ichki bozor ehtiyojlari, infratuzilma imkoniyatlari hamda oziq-ovqat sanoati korxonalarining xomashyoga bo'lgan talabini ta'minlash bilan bog'liq. Ishlab chiqaruvchilarning yangi texnologiyalar, yuqori unumdor ishlab chiqarish usullari va zamonaviy boshqaruv yechimlaridan foydalanishi butun oziq-ovqat qiymat zanjirining innovatsion rivojlanishiga asos yaratadi.

Mexanizmning quyi qismida oziq-ovqat mahsulotlari importi va eksporti aks ettirilgan. Import ichki bozorda yetishmaydigan oziq-ovqat mahsulotlari va resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qilishi bilan birga, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat muhitini kuchaytiradi. Eksport esa viloyat oziq-ovqat sanoatining tashqi bozorlarga integratsiyalashuvi, sotish geografiasining kengayishi va eksport tushumlarining oshishini ta'minlaydi. Ayniqsa, qayta ishlangan va yuqori qo'shilgan qiymatga ega oziq-ovqat mahsulotlari eksportini kengaytirish innovatsion rivojlanishning muhim natijalaridan biri hisoblanadi.

Taklif etilgan mexanizmning asosiy mazmuni "ishlab chiqarish – qayta ishlash – qadoqlash va saqlash – logistika – savdo – iste'mol" zanjirini ichki va xalqaro talab hamda import-eksport oqimlari bilan yagona tizimga birlashtirishdan iborat. Uning amaliy jihatdan takomillashtirilishi oziq-ovqat sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalar kooperatsiyasini kuchaytirish, zamonaviy logistika va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish, bozor talabiga mos mahsulotlar ishlab chiqarish hamda eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi. Natijada mintaqa oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshligi, innovatsion faolligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi o'zaro bog'langan tashkiliy-iqtisodiy tizim shakllanadi.

TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etish natijalari shuni ko'rsatadiki, sohaning barqaror rivojlanishi faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan emas, balki ishlab chiqarishdan iste'molgacha bo'lgan barcha jarayonlarning o'zaro muvofiqlashtirilishi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, oziq-ovqat sanoatining innovatsion rivojlanishini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika, savdo, ichki va xalqaro talab hamda import-eksport munosabatlarini qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida tashkil etish zarur.

Olib borilgan tahlillar asosida mintaqa oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishga ta'sir qiluvchi asosiy yo'nalishlar ishlab chiqarish va xomashyo ta'minoti, qayta ishlash, qadoqlash va saqlash, tashish va taqsimlash, bozor va chakana savdo, nazorat va muvofiqlashtirish jarayonlari bilan bog'liqligi aniqlandi.





Tahlillar oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash va saqlash tizimi ham innovatsion rivojlanishning muhim tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining xususiyatidan kelib chiqib, ularni tegishli harorat va saqlash sharoitida saqlash, zamonaviy qadoqlash texnologiyalaridan foydalanish mahsulot sifatini saqlab qolish hamda yo'qotishlarni kamaytirishga imkon beradi. Ayniqsa, tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlari uchun zamonaviy omborlar va sovutish infratuzilmasining rivojlanganligi ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi qiymat zanjirining uzluksiz ishlashida muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Mintaqa oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va ularning natijaviy ta'siri

№	Asosiy yo'nalishlar	Mavjud jarayon	Innovatsion rivojlantirish choralari	Kutilayotgan iqtisodiy natija
1	Xomashyo ishlab chiqarish	Oziq-ovqat sanoatini mahalliy xomashyo bilan ta'minlash	Ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchilar kooperatsiyasini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish	Xomashyo ta'minoti barqarorligi va ishlab chiqarish uzluksizligi oshadi
2	Qayta ishlash va ishlab chiqarish	Xomashyoni tayyor va yarim tayyor mahsulotga aylantirish	Zamonaviy uskunalar, avtomatlashtirish va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish	Mehnat unumdorligi va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar hajmi oshadi
3	Qadoqlash va saqlash	Tayyor mahsulotlarning sifatini saqlash	Zamonaviy qadoqlash, sovutish va saqlash texnologiyalarini kengaytirish	Mahsulot yo'qotishlari kamayadi, saqlash muddati uzayadi
4	Tashish va taqsimlash	Mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan bozorga yetkazish	Logistika jarayonlarini raqamlashtirish va ta'minot zanjirini optimallashtirish	Yetkazib berish vaqti va logistika xarajatlari qisqaradi
5	Bozor va chakana savdo	Mahsulotlarni yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilish	Elektron savdo, marketing va talab monitoringi tizimlarini rivojlantirish	Sotish imkoniyatlari va bozor qamrovi kengayadi
6	Nazorat va muvofiqlashtirish	Mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash	Raqamli monitoring, sifat nazorati va standartlashtirishni takomillashtirish	Mahsulot sifati va iste'molchilar ishonchi oshadi

Tashish va taqsimlash jarayonlari tahlili esa oziq-ovqat sanoatida logistika tizimini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning iste'molchiga o'z vaqtida va sifatini saqlagan holda yetkazib berilishi korxonaning bozordagi raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli transport-logistika jarayonlarini raqamli boshqarish, mahsulot harakatini kuzatish va ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi hamda savdo subyektlari o'rtasidagi axborot almashinuvini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot davomida ichki talabning oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishdagi roli ham alohida baholandi. Ichki bozor talabi ishlab chiqarish hajmi bilan bir qatorda mahsulotlarning tarkibi, assortimenti, sifati va narx xususiyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Iste'molchilarning sifatli, xavfsiz, qulay





qadoqlangan va yangi turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabining o'zgarishi korxonalarni ishlab chiqarish texnologiyalari va mahsulot assortimentini muntazam yangilab borishga undaydi. Demak, iste'molchi talabini muntazam o'rganish innovatsion faoliyatni bozor ehtiyojlariga muvofiqlashtirishning muhim vositasi hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqot asosida oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirish mexanizmidan nazorat va muvofiqlashtirish alohida funksional bo'g'in sifatida ajratildi. Mazkur bo'g'in ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, savdo va iste'mol jarayonlari o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirish, mahsulot sifati va xavfsizligini nazorat qilish hamda bozor ishtirokchilari o'rtasida zarur axborot almashinuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

2-jadval

Mintaqa oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy elementlari

Mexanizm elementlari	Oziq-ovqat sanoatidagi vazifasi	O'zaro bog'liqlik yo'nalishi	Innovatsion ta'siri	Asosiy natija
Ishlab chiqaruvchilar	Sanoatni xomashyo bilan ta'minlash	Ishlab chiqaruvchi ↔ infratuzilma	Zamonaviy ishlab chiqarish usullarini joriy etish	Xomashyo hajmi va sifati oshishi
Viloyat oziq-ovqat sanoati	Xomashyoni qayta ishlab, tayyor mahsulot yaratish	Sanoat ↔ bozor	Ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish	Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ko'payishi
Ichki talab	Mahalliy bozor ehtiyojlarini shakllantirish	Talab ↔ ishlab chiqarish	Mahsulot assortimentini talabga moslashtirish	Ichki bozorning mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlanishi
Xalqaro talab	Tashqi bozor ehtiyojlarini shakllantirish	Xalqaro talab ↔ eksport	Mahsulotni xalqaro talab va standartlarga moslashtirish	Tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayishi
Import	Ichki bozordagi taklif va raqobat muhitiga ta'sir qilish	Import ↔ ichki bozor	Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni texnologik yangilanishga rag'batlantirish	Mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligi oshishi
Eksport	Mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish	Sanoat ↔ eksport ↔ xalqaro bozor	Eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish	Eksport salohiyati oshishi
Iste'molchilar	Talab va sifat talablarini shakllantirish	Iste'molchi ↔ bozor ↔ ishlab chiqaruvchi	Iste'molchi talabiga asoslangan mahsulot innovatsiyalarini rag'batlantirish	Mahsulot sifati va assortimenti yaxshilanishi

Tadqiqotning asosiy natijasi sifatida mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirishning "ishlab chiqaruvchi – infratuzilma – oziq-ovqat sanoati – bozor talabi – import va eksport – iste'molchi" o'zaro bog'liqligiga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi shakllantirildi. Taklif etilgan mexanizmning amaldagi yondashuvlardan muhim jihati ishlab chiqarish va sotish





jarayonlarini alohida emas, balki ichki va xalqaro talab hamda to'g'ri va teskari iqtisodiy aloqalar orqali yagona tizimga birlashtirishdan iborat.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, mintaqa oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilandi: xomashyo yetkazib beruvchilar va qayta ishlash korxonalari kooperatsiyasini kuchaytirish; ishlab chiqarish quvvatlarini texnologik modernizatsiya qilish; zamonaviy qadoqlash va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish; logistika jarayonlarini raqamlashtirish; iste'molchilar talabini muntazam monitoring qilish; yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish; xalqaro standartlarga moslashtirish va eksport salohiyatini oshirish; barcha bo'g'inlar o'rtasidagi axborot almashinuvi va muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish.

Umuman, tadqiqot natijalari mintaqada oziq-ovqat sanoatining innovatsion rivojlanishini ta'minlash uchun alohida korxonalarning texnologik yangilanishidan ko'ra kengroq yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni innovatsion rivojlanish ishlab chiqaruvchidan boshlab yakuniy iste'molchigacha bo'lgan qiymat zanjirining barcha ishtirokchilarini qamrab olishi, ichki va tashqi bozor talabi bilan uyg'unlashtirilishi hamda import-eksport jarayonlari bilan muvofiqlashtirilishi lozim. Taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm aynan shu o'zaro aloqalarni tizimlashtirish orqali mintaqa oziq-ovqat sanoatining innovatsion faolligi, raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirish ishlab chiqarish jarayonlarini texnologik yangilash bilangina cheklanmasdan, xomashyo yetishtirishdan boshlab tayyor mahsulotni yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'zaro muvofiqlashtirishni talab etishini ko'rsatdi. Oziq-ovqat sanoatining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishi ishlab chiqaruvchilar, qayta ishlash korxonalari, infratuzilma subyektlari, savdo tashkilotlari va iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning samarali tashkil etilishiga bevosita bog'liq.

Tahlillar natijasida oziq-ovqat sanoati infratuzilmasining ishlab chiqarish, qayta ishlash, qadoqlash va saqlash, tashish va taqsimlash, bozor va chakana savdo, nazorat va muvofiqlashtirish kabi asosiy funksional bo'g'inlari ajratildi. Ushbu bo'g'inlarning har biriga innovatsion texnologiyalarni joriy etish mahsulot tannarxini optimallashtirish, yo'qotishlarni kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, ichki va xalqaro talab oziq-ovqat sanoatining innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi muhim bozor omillari ekanligi asoslandi. Iste'molchilar talabining mahsulot sifati, xavfsizligi, assortimenti va qadoqlanishiga nisbatan o'zgarib borishi ishlab chiqaruvchilarni mahsulot hamda texnologik innovatsiyalarni joriy etishga undaydi. Xalqaro talabning mavjudligi esa korxonalarni xalqaro standartlarga mos, eksportbop va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltiradi.





Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, mintaqada oziq-ovqat sanoatini innovatsion rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlash korxonalari o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish. Xomashyo yetkazib berish hajmi, sifati va muddatlarini qayta ishlash korxonalarining ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish orqali ishlab chiqarish quvvatlaridan barqaror foydalanish mexanizmini shakllantirish lozim.

2. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini texnologik modernizatsiya qilishni jadallashtirish. Zamonaviy, energiya va resurs tejamkor uskunalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish orqali mehnat unumdorligi hamda mahsulotning qo'shilgan qiymatini oshirish maqsadga muvofiq.

3. Qayta ishlash darajasini chuqurlashtirish. Mahalliy xomashyoni oddiy shaklda realizatsiya qilishdan ko'ra, uni chuqur qayta ishlash asosida tayyor va yuqori qo'shilgan qiymatga ega oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushini oshirish zarur.

4. Qadoqlash va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish. Zamonaviy sovutish omborlari, mahsulot xususiyatiga mos saqlash tizimlari va innovatsion qadoqlash texnologiyalarini kengaytirish orqali mahsulot yo'qotishlarini kamaytirish va saqlash muddatini uzaytirish lozim.

5. Transport-logistika tizimini takomillashtirish va raqamlashtirish. Mahsulotlarning ishlab chiqaruvchidan qayta ishlash korxonalariga, undan savdo tarmoqlari va iste'molchilarga yetkazib berish jarayonlarini yagona axborot tizimi orqali muvofiqlashtirish logistika xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi.

6. Ichki bozor talabini muntazam monitoring qilish tizimini shakllantirish. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi, iste'mol tarkibi, mahsulot sifati va assortimentiga oid o'zgarishlarni muntazam o'rganish hamda ushbu ma'lumotlardan korxonalarining ishlab chiqarish qarorlarida foydalanish zarur.

7. Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish. Xalqaro standartlarga mos sertifikatlash, sifat nazorati, zamonaviy qadoqlash va markirovkalash tizimlarini kengaytirish orqali mintaqada ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish lozim.

8. Nazorat va muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Oziq-ovqat qiymat zanjirining barcha bosqichlarida mahsulot sifati va xavfsizligini nazorat qilish, ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi, logistika va savdo subyektlari o'rtasidagi axborot almashinuvini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijasida taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni amaliyotga joriy etish "ishlab chiqarish – qayta ishlash – qadoqlash va saqlash – logistika – savdo – iste'mol" zanjirining uzluksizligini ta'minlash, ichki va xalqaro talabga mos ishlab chiqarishni tashkil etish hamda import-eksport jarayonlarini mahalliy ishlab chiqarish manfaatlari bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Natijada mintaqa oziq-ovqat sanoatining innovatsion faolligi, ishlab chiqarish samaradorligi, eksport salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur tashkiliy-iqtisodiy sharoitlar shakllanadi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ismailov O.S. Development of the food industry in Uzbekistan on the innovative basis // Economy of Regions. – 2010. – № 3. – P. 245–249. – DOI: 10.17059/2010-3-32.
2. Abdukadirova N.A., Ubaydullayev B.S. Development of the food industry in Uzbekistan // International Journal of Management and Economics Fundamental. – 2022. – Vol. 2, № 4. – P. 9–13. – DOI: 10.37547/ijmef/Volume02Issue04-02.
3. Grunert K.G., Harmsen H., Meulenbergh M.T.G., Kuiper E., Ottowitz T., Declerck F., Traill B., Göransson G. A framework for analysing innovation in the food sector // Product and Process Innovation in the Food Industry / ed. by B. Traill, K.G. Grunert. – London: Blackie Academic & Professional, 1997. – P. 1–37.
4. Traill B., Grunert K.G. (eds.). Product and Process Innovation in the Food Industry. – London: Blackie Academic & Professional, 1997.
5. Nosratabadi S., Mosavi A., Lakner Z. Food supply chain and business model innovation // Foods. – 2020. – Vol. 9. – № 2. – Art. 132.
6. FAO. The State of Food and Agriculture 2022: Leveraging Automation in Agriculture for Transforming Agrifood Systems. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2022.
7. WIPO. Global Innovation Index 2025: Innovation at a Crossroads. – Geneva: World Intellectual Property Organization, 2025.
8. WIPO. Uzbekistan Ranking in the Global Innovation Index 2025. – Geneva: World Intellectual Property Organization, 2025. O'zbekiston 2025-yilda Global innovatsion indeksda 139 ta iqtisodiyot orasida 79-o'rinni egallagan.
9. Kotler P., Keller K.L. Marketing Management. – 15th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2016.
10. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985.
11. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.
12. OECD, Eurostat. Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation. – 4th ed. – Paris: OECD Publishing, 2018.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**